



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 24-iyun, shanba,
75 (23.796)-son

**KUN
HIKMATI**

Vaqt qadrligini
o'lovini bilgan
odam boshqa
hamma narsa
yoki harakatning
me'yorini belgilay
oladi

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

↓ Saylov — 2023

MISSIYA RAHBARI SAMARQANDDA



Kecha Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini kuzatish bo'yicha missiyasi rahbari, elchi Ursula Yuzefa Gachek hamda missiyaning uzoq muddatli kuzatuvchilari Samarqandda bo'lib, 7-Samarqand okrug saylov komissiyasi rahbarlari bilan uchrashdi.

Okrug saylov komissiyasi raisi X.Muhammadiyev ayni paytda viloyatimizda muddatidan ilgari o'tkazilayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kampaniyasining borishi, okrug komissiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

Ursula Yuzefa Gachek xonim uchastka saylov komissiyalari a'zolarini tanlash, ularga haq to'lash, muddatidan oldin ovoz berish jarayonlarini tashkil etish masalalari bilan qiziqdi.

Shuningdek, uchrashuvda uchastka saylov komissiyalari a'zolari uchun tashkil etilgan o'quvlar, saylov kuni berilgan ovozlarini sanash jarayonlari va okrugda ovozlarini umumlashtirishda xorijiy kuzatuvchilarning ishtiroki masalalari tilga olindi.

Missiya rahbari, elchi Ursula Yuzefa Gachek xonim viloyat hokimi Erkinjon Turdimov bilan ham uchrashdi.

7-Samarqand okrug saylov komissiyasi matbuot markazi.

Shu kecha-kunduzda Samarqand shahrini obodonlashtirishda Abu-Dabi Taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida amalga oshirilayotgan "Samarqand shahri infratuzilmasini modernizatsiya qilish" investitsiyaviy loyihasi ham muhim o'rin tutmoqda. Mazkur loyiha bo'yicha shaharning markaziy ko'chalarida suv ta'minoti tizimlari va yo'l tarmoqlari modernizatsiya qilinmoqda.

"Mesmer-east LLC" qurilish korxonasi ishchilari Gagarin va O'zbekiston ko'chasi oralig'ida ichimlik suvi tarmoqlarini qurish ishlarini olib bormoqda. Bu ishlarga korxonaning 40 nafardan ortiq ishchi va mutaxassislari jalb qilingan bo'lib, 26 ta yuk tashish, qazish va boshqa maxsus texnikalar yordamida kovlash va quvur ko'mish ishlarini bajarmoqda.

Bugungacha mazkur obyektga 10 kilometrdan ziyod suv tarmoqlarini yotqizdik, - deydi loyiha ish boshqaruvchisi Zafar Shomirzayev. - Amir Temur ko'chasida 2,1 kilometr masofaga 800 diametrlilik cho'yan qoplamali quvur yotqizish ishlarini yakunladik. Ayni kunlarda Gagarin ko'chasidan O'zbekiston ko'chasi tomonga 650 metr masofaga quvurlarni montaj qildik. Markaziy tarmoqqacha 200 metrga yaqin masofa qoldi. Mazkur obyektidagi ishlar joriy yilning 1-iyuligacha yakuniga yetkaziladi.

Ichimlik suvi tarmoqlari yangilanishi bilan birga suv bosimini bir me'yorda ushlab maqsadida barcha suv inshootlari hamda taqsimlash tugunlari to'liq zamonaviy energotejamkor nasoslarga almashtirilib, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi tashkil etiladi.

Ya'qinda Amir Temur va Bo'stonsaroy ko'chalari oralig'idagi 2,3 kilometr masofada ichimlik suvi tarmoqlari

AMIR TEMUR KO'CHASIDA

PIYODALAR UCHUN YER OSTI YO'LAGI QURILADI



yangilangan edi. Endi shu hudud "New-Tech Samarqand" MCHJ ishchi-mutaxassislari tomonidan asfalt qilinmoqda.

Mazkur obyektga qurilish-ta'mirlash ishlariga 90 nafardan ziyod ishchi, 50 dan ziyod yuk mashinalari va maxsus transport jalb qilingan, - deydi korxona ish boshqaruvchisi Alisher Inoqov. - Hozirgacha yo'lining 700 metr qismi 3 qavat qoplamalar bilan tayyorlanib, so'nggi asfalt yotqizish ishlari olib borilmoqda. Tez kunlarda yana yo'lining 1,5 kilometrlilik qismini ta'mirlash ishlarini boshlaymiz.

Amir Temur ko'chasidagi qurilish - ta'mirlash ishlari

yakunlangach, yo'lining eni 20 metrga yetadi. Ko'chani ikki tomonidan piyoda va veloyol'lar, g'ulxona bo'ladi, tungi yoritish chiroqlari o'rnatiladi. Shuningdek, ayni vaqtda yo'lsozlar yangi piyodalar o'tish yeri yo'lga qurishni ham boshlab yuborishdi.

Tunnelning uzunligi 36 metr, eni 4 metr va balandligi 2,5 metrni tashkil etadi. Mazkur yer osti yo'lga 71-bog'cha va 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi oldida joylashadi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.
Baxtiyor MUSTANOV (surat).**

"Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida o'tkazilayotgan festival Payariqda davom etdi. Uning doirasida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, intellektual o'yinlar, ko'rgazmalar va sport musobaqalari tashkil etildi. Festival davomida tumandagi maktablarni a'lo baholar bilan tamomlagan bir guruh bitiruvchilarga oltin va kumush medallar tantanali ravishda topshirildi.

10 NAFAR PAYARIQLIK BITIRUVCHI XORIJD A'LO BAHOLAR BILAN



- Bu yil tumanimizdagi maktablarning 11-sinfini 3083 nafar o'quvchi tugatdi, - deydi tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi metodisti Shokir O'rolboyev. - Ularning orasida a'lo baholarga o'qigan, namunali xulqi bilan boshqalarga o'rnatilgan 185 nafar bitiruvchi oltin medal sohibi bo'ldi. 42 nafariga esa kumush medallar topshirildi. Ahamiyatli, bu yil bitiruvchilarimizning 4 nafari AQSH, 3 nafari Buyuk Britaniya, 1 nafari Germaniya va 2 nafari Rossiya davlatlarining nufuzli oliy ta'lim muassasalariga muddatidan avval talabalikka qabul qilindi. Shuningdek, 11 nafari IELTS va 16 nafari CEFR xalqaro sertifikatlariga ega bo'ldi.

- Bu yilgi yoshlar festivali men uchun unutilmas bo'ldi, - deydi tumandagi 68-umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchisi Behro'z Qilichov. - Sababi ushbu tadbirda menga maktabni a'lo baholarga bitirganim uchun oltin medal topshirildi. Kelgusida moliyachi bo'lmoqchiman.

Festival doirasidagi tadbirlar kechki payt gala-konsert bilan davom etdi.

**To'liq SIDDIQOV,
Jasurbek SHUKUROV (surat).**

Jurnalistlar o'zini sportda sinab ko'rdi



"Zarafshon" gazetasi 110, "Самаркандский вестник" gazetasi 105 yilligi hamda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan sportning badminton, stol tenisi va shaxmat-shashka turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi.

Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi va O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi hamkorligida tashkil etilgan sport tadbirlarida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalari vakillari, axborot xizmati xodimlari hamda bloggerlar qatnashdi. Shuningdek, Samarqandda mehmon bo'lib turgan navoiylik va jizzaxlik jurnalistlar ham musobaqa ishtirokchilariga aylandi.



- Har yili kasb bayramimiz oldidan turli tanlov va sport musobaqalari o'tkazilishi an'anaga aylangan, - deydi O'zAning Samarqand viloyati bo'yicha fotomuxbiri Alisher Isroilov. - Do'stona o'tgan sport musobaqalarida badminton bo'yicha qatnashib, birinchi o'rinni egalladim. Gap g'olib bo'lishda emas, albatta. Bu kabi tadbirlar biz ijodkorlarga zavq ulashadi, ilhom bag'ishlaydi.

Musobaqalarda har bir sport turi bo'yicha g'oliblar aniqlanib, tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi.

Shahzoda ISMATULLAYEVA.

QOZOQ XALQ QO'SHIQLARI YANGRADI



Shu kunlarda yurtimizda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi do'stlik va madaniy hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida Qozog'iston madaniyati kunlari o'tkazilmoqda.

Mazkur tadbirlar doirasida Samarqand shahridagi "Nurafshon" madaniyat saroyida Roza Baglanova nomidagi "Qozog'konsert" davlat muassasasi ijodiy guruhi-ning konsert dasturi namoyish etildi.

Konsert avvalida Oliy Majlis Senati a'zosi F.Toshev, Samarqand viloyati hokimining o'rinbosari R. Qobilov va boshqalar o'zbek va qozoq xalqlarining qavmu qarindoshlik, do'stlik munosabatlari tarixi uzoq o'tmishga



borib taqalishi, tili, dini, urf-odati hamda madaniyatlarini mustahkamlashni e'tirof etdilar.

Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar yildan-yilga rivojlanib borayotgani ta'kidlandi. Bugungi kunda Samarqand shahrida Qozog'iston Respublikasi bosh konsulxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Konsertda qardosh xalqning bir guruh san'at ustalari, yetakchi badiiy jamoalari tomonidan qozoq xalq qo'shiq va termalari ijro etildi.

Jumladan, Qozog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Alisher Karimov, xalqaro tanlovlar sovrindorlari Ruxiya Baydukenova, Madi Sizdikov, "Gulder", "Turon" folklor-etnografik ansambllarining chiqishlari yig'ilganlarga manzur bo'ldi.

S.MARDIYEV.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 9-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston” mas-sivlarini qurish va hududlarning ijti-moiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida viloyatimizning Urgut va Bu-lung’ur tumanlarida “Yangi O‘zbekiston” massivlari qurilmoqda.



G‘o‘bdindagi “Yangi O‘zbekiston”

Aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, hududlarda zamonaviy shaharsozlik talablari asosida ko‘p qavatli uy-joylar, ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari hamda muhandislik-kommunikatsiya tar-moqlari qurilishini jadallashtirish, yer resurslaridan oqilona foydala-nish va aholi punktlarining urban-izatsiya jarayonlarini rivojlantirish maqsadida 2022-yilda boshlangan ishlar ayni paytda ham qizg‘in davom etmoqda.



– “Yangi O‘zbekiston” mas-sivlari avvaldan turarjoy yoki boshqa obyektlar bo‘lgan joylarda emas, ochiq maydonlarda butun-lay yangidan, zamonaviy loyihalar asosida qurilmoqda, – deydi Bu-lung’ur tumani hokimi o‘rinbosari Norbo‘ta Sanaqulov. – Massivlar asosan, aholi istiqomat qilishi uchun tashkil etilmoqda va bu maskanlarda uy-joylardan tash-qari, maktab, bog‘cha, sport va madaniyat muassasalari, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari bo‘la-di. Markazlashgan ichimlik suv, oqova tarmoqlari va boshqa zarur kommunikatsiya tizimlari yaratila-di. Bir so‘z bilan aytganda, nomi-ga munosib tarzda shaharcha

ko‘rinishidagi ko‘rkam turarjoy majmuasi bunyod etiladi. Bizning tumanimizda ham M-37 yo‘li yoqasida, G‘o‘bdin mahallasi hududidan 24 gektar ochiq yer maydoni ajratilib, o‘tgan yil quri-lish ishlari boshlangandi. Bu yerda shu paytgacha umuman, uy-joy va boshqa ijtimoiy soha obyekt-lari bo‘lmagan. Faqatgina ikki yil oldin uchta ko‘p qavatli uy qurilib, aholiga topshirilgan edi. Endilik-da ushbu maskan mingdan ortiq

xonadonli ko‘p qavatli uylardan iborat shaharcha bo‘ladi. Farmon asosida mazkur mas-sivda 2022-2024-yillarda 1160 xonadonli 58 ta ko‘p qavatli uy, 2 ta umumta’lim maktabi, 3 ta maktabgacha ta’lim tashkilo-ti, 8 ta sport va sog‘lomlashti-rish markazi, shuningdek, oilaviy poliklinika, mahalla markazi, IIB tayanch punkti, madaniyat uyi, yoshlar markazi, IT-park, savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari qurilishi ko‘zda tutilgan. O‘tgan yil massiv bosh rejasiga asosan har biri 20 xonadondan iborat 18 ta besh qavatli uy qurilishi boshlangan edi. Ularning aksariyat-ida ishlar yakunga yetmoqda. Joriy

yilda esa 25 ta uy qurilishi boshlan-di. Shuningdek, ichimlik suvi, tabiiy gaz tarmog‘i tortildi. Ayni paytda massiv uchun oqova tizimi yaratish va tarmoq tortish ishlari olib boril-moqda. Uylar qurilishi yakuniga yetishi bilan yo‘l va boshqa kom-munikatsiya tizimlari yaratish ishlari boshlanadi. – “Yangi O‘zbekiston” mas-sivida o‘tgan yil 20 xonadonli bitta besh qavatli uy qurgan-dik, – deydi “Me‘mor” xususiy korxonasi ish boshqaruvchisi Sayfiddin To‘rayev. – Bu yil esa yana uchta shunday uy qurishni zimmamizga olganmiz. Hozirda uchta uyda ham qurilish ishlari davom etmoqda. Oktabr oyiga qadar xonadonlarni foydalanish-ga topshirish belgilangan. Ikki va uch xonadonli bu uylarning birinchi qavatida savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari bo‘ladi. Bosh rejaga ko‘ra, uylarni isitish tizimi ham markazlashgan holda amalga oshiriladi. Ya’ni, besh-oltita uy uchun alohida isi-tish tizimi bo‘ladi. Tender tanlovi asosida bu vazifani amalga oshi-radigan qurilish tashkiloti ham aniqlanib, ishlarga kirishildi. Yangi tartibga ko‘ra, mas-sivdagi ko‘p qavatli uylarning tom qismiga quyosh panellari o‘rnatilmoqda. Shuningdek, uylarning yarim yerto‘lasidan samarali foydalanish maqsadida turarjoyga mo‘ljallanmoqda. Bu xonadonlar hokimlik tomonidan uy-joyga muhtoj fuqarolarga beri-lishi ko‘zda tutilgan. Mutasaddilarning aytishicha, massivdagi ko‘p qavatli uylarning bir qismi joriy yil sentabr oyiga-cha, qolgan yil yakuniga qadar foydalanishga topshirilishi re-jalashtirilgan. **G‘olib HASANOV, Alisher ISROILOV (surat).**

Suv quduqlari xususiylashtirilmoqda. NIMALAR O‘ZGARADI?

Davlatimiz rahbarining topshiriqlariga asosan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini barcha sohalarida keng joriy etish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda. Respublikamiz bo‘ylab suv xo‘jaligi obyektlari (nasos stan-siya, kanal va kollektor-drenaj tarmoqlari) ning 161 tasi davlat-xususiy sheriklik (DXSH) shartlari asosida bosqichma-bosqich xususiy sektor boshqaruviga o‘tkazildi. Ularning 46 tasi Samarqandda faoliyat olib borayotgan xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri keladi.



Xo‘sh, suv xo‘jaligi obyektlarini xususiy sektorga o‘tkazish tizim rivojiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatadi? Obyektlarni xususiy sektor boshqaruviga topshirish orqali iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etish, xususiy investitsiyalarni jalb etgan holda, ilg‘or boshqaruv tajribasini joriy etish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, budget mablag‘larini tejash aso-siy maqsad hisoblanadi. Shu asosda, viloyatimizda 2020-2022-yillarda jami 40 ta loyiha DXSH tamoyillari asosida belgilangan tartibda xususiy sektorga o‘tkazildi. Xususan, Bulung‘ur tumanidagi “G‘alaba” nasos stansiyasi “SAG agro Bulung‘ur” MCHJga, Narpay tuman irrigatsiya-melioratsiya ob’ektlari va nasos stan-siyalari “Maroqand sifat” MCHJga, Kattaqo‘rg‘on tu-mani “Moybuloq”, “Ko‘kcha-1” va “Ko‘kcha-2” nasos stansiyasi “Amina gold invest” MCHJ boshqaruviga, Payariq, Ishtixon, Oqdaryo, Bulung‘ur va Qo‘shrabot tumanlaridagi 35 dan ortiq sug‘orish quduqlari xususiy sektor boshqaruviga berildi. 12 ta nasos stansiyasi bo‘yicha qiymati 531946,6 million so‘mlik, 53,3 kilometr kanal, 277 kilometr kollektor tarmoqlari va 45 ta sug‘orish qudug‘i bo‘yicha bitimlar imzolandi. Xususiy sheriklar to-monidan loyiha doirasida jami 52996,3 million so‘m

investitsiya mablag‘i yo‘naltirildi. Loyihalarni amalga oshirish natijasida 163,1 million kWt (bugungi kundagi elektr energiya tarifi bilan 130,5 milliard so‘m) elektr energiyasi iqtisod qilindi. Shuningdek, joriy yil viloyatimizda bir qator loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunda 6 ta sug‘orish qudug‘i bo‘yicha bitimlar imzolani, 9 ta sug‘orish qudug‘i bo‘yicha loyihalar Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan o‘rnanilm-oqda. Ishtixon va Oqdaryo tumanida amalga oshiril-ishi kerak bo‘lgan loyihalarining ma’lumotlari tegishli xulosa olish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirli-giga yuborildi. Bundan tashqari, 15 ta nasos stansiyasini xus-usiy sektorga berish bo‘yicha jadal ish olib borilm-oqda. 4 ta nasos stansiyasi loyihasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda 5 ta nasos stansiyasi loyiha hujjatlari Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan ko‘rib chiqilmoqda. Qolgan 6 ta nasos stansiyasi bo‘yicha xususiy sheriklar bilan birgalikda loyiha hujjatlari ish-lab chiqilmoqda. Shuningdek, Oqdaryo va Payariq tumanida joylashgan Zarafshon ITHB huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qa-rashli 6 ta sug‘orish quduqlari davlat-xususiy sherik-lik shartlari asosida xususiy sektorga topshiriladi. **Zarafshon ITHB axborot xizmati.**



BU FAKT!
Viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11 701,7 milliard so‘mlik sanoat mahsulot-lari ishlab chiqarilgan. Bu bilan 2022-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 106,5 foizni tashkil etdi.

Tranzit tashishni raqamlashtirish zarur



Samarqandda TIR Ijroiya kengashi, Eron, Pokiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikis-ton, Turkmaniston va O‘zbekiston bojxona tizimi mas’ullari va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida tranzit tashishni raqamlashtirish ma-salalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi.

TIR – (fransuzcha “Transports Internationaux Routiers”) bu tovarlarni kelib chiqqan mamlakatdan belgilangan davlatga bojxona nazoratidan shaffof, o‘zaro tan olingan tartiblarga muvofiq, muhrlangan yuk bo‘limlarida tashish imkonini beruvchi jahon miqyosida uyq’unlashtirilgan bojxona tranziti tizimi. Bu tovarlarni bir nechta xalqaro chegaralar orqali olib o‘tishning eng oson, xavfsiz va ishonchli usuli bo‘lib, tashuvchilar va bojxona organlarining ham vaqtini va mablag‘ini tejaydi. TIR konvensiyasi 1978-yilda kuchga kirgan bo‘lib, O‘zbekiston ushbu konvensiyaga 1995-yilda qo‘shil-gan. Dengizga chiqish yo‘li bo‘lmagan va quruqlik-dagi transport tizimi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mamlakat sifatida O‘zbekiston TIR-karnet kitob-chalaridan foydalanish bo‘yicha 77 ta ahdlashuv-chi davlatlar ichida ikkinchi o‘rinni (Erondan keyin) egallaydi. - TIR tizimi tashish vaqtini 80 foizga, xarajatlarni esa 38 foizgacha qisqartiradi, – deydi italiyalik Marko Champi. – Har yili 1 millionga yaqin tashuvlar TIR dan foydalangan holda amalga oshiriladi. Biz Yevro-pa Ittifoqiga a’zo davlatlardanmiz va bojxona tizimi bizda allaqachon kompyuterlashtirilgan. Ushbu taj-ribadan unumli foydalanib, boshqa davlatlarda ham bojxona tizimini to‘liq raqamlashtirish kerak. - Yurtimizda ilk bor tashkil etilgan anjumanda ishtirokchilar Markaziy Osiyo transporti uchun yago-na raqamli platforma yaratishga e’tibor qaratmoqda, – deydi Bojxona qo‘mitasining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini tashkil etish boshqarmasi bosh-lig‘i Rustam Qobulov. – Bu transport va logistika kompaniyalari yuklarni xalqaro chegaralar orqali tez va ishonchli tashish uchun xizmat qiladi. Jumladan, O‘zbekiston raqamli bojxona rasmiylashtiruvini vosi-talariga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro darajada faol ish olib boryapti. Xalqaro avtomobil transporti to‘g‘risidagi konvensiyaning 11-ilovasi doirasida Ozarbayjon hamda O‘zbekiston o‘rtasida birinchi transchegaraviy yuk tashish amalga oshiril-gani buning isbotidir. **Fazliddin RO‘ZIBOYEV.**

Samarqand tumanida yerning egasi bormi?



Keyingi yillarda aholining doimiy ish bilan band bo‘lmagan qatlami, yordamga muhtoj-larni kuchli ijtimoiy himoyalash, ularda tadbir-korlik ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida “E-aukcion” elektron savdo platformasi orqali ko‘chma savdo joylari ajratish tartibi joriy etilgani ayni muddao bo‘ldi. Ammo bunday tadbirlar barcha joyda ham birdek hayotga tatbiq etilyapti, deb bo‘lmaydi.

Jumladan, Samarqand tumani Xishrav mahallasi hududidan o‘tuvchi, Tong ko‘chasida yo‘l chetidan ajratilgan yengil konstruksiyali ko‘chma savdo do‘konlari qurilishi jarayonida qonunbuzilishi holat-lari sodir etilmoqda.

Xishrav mahalla fuqarolar yig‘ini raisining ta’kidlashicha, mazkur hududda ko‘chma savdo do‘konlari uchun yer maydonlari “E-aukcion” elek-tron savdo platformasi orqali aukcion savdolariga qo‘yilgan. Unda qatnashib, g‘olib bo‘lganlarga yerga egalik qilish huquqini beruvchi tegish-li ruhsatnoma topshirilgan. Shunga asosan, ular tomonidan 6 kvadrat metrga yengil konstruksiyali, ko‘chma savdo do‘konlari qurish belgilangan. Lekin, mazkur hududda ko‘chma savdo do‘konlari o‘rnatish huquqini qo‘lga kiritganlar tomonidan yengil konstruksiyali ko‘chma savdo va xizmat ko‘rsatish do‘konlari o‘rniga avtomo-bil yuvish markazlari va boshqa xizmat ko‘rsatish shoxobchalari barpo etilmoqda. Aukcion orqali 6



kvadrat metr yer maydoni ajratilib, 3x2 hajmda-gi ko‘chma savdo do‘koni o‘rnatish belgilangan bo‘lsa-da, qurilish talablari qo‘pol tarzda buzilib, noqonuniy bino va inshootlar qad rostlamoqda. Albatta, tadbirkorlar qancha ko‘p bo‘lsa, yurtimiz, mahallamiz obod va ko‘rkam bo‘ladi. Ammo talab va tartib barchaga birdek bo‘lishi kerak emasmi? Tong ko‘chasi yaqinida barpo etilgan, bar-cha talablarga javob beradigan ko‘chalardan biri. Shunday ekan, bu yerda yagona loyiha va o‘lchamda, o‘ziga xos dizaynga ega savdo maskanlari, avtobus bekatlari barpo etilsa, bu shahrimizning ko‘rkiga yanada ko‘rk bag‘ishlaydi. **Abduvali XUDOYOROV, jurnalist.**



Bugun Nurobod tumanida aholi farovonligini oshirish va hududlar qiy-o-fasini yaxshilash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yaqinda tumanning Og‘roncha qishlog‘idagi sel yo‘lida mustahkam va zamonaviy ko‘prik qurilib, foydalanishga topshirildi. - 2021-yil bahor kunlarining birida katta sel kelib, eski ko‘prikni vayron qilib ketgandi, – deydi mehnat faxriysi Sunnat Bobodoniyorov. – O‘tgan ikki yil mobaynida tuman markazi, qolaversa, Kattaqo‘rg‘on shahri, Ingichka shaharchasi, Qarg‘ali qishlog‘iga qatnovchi aholimiz juda qiynaldi. Ko‘prikni qayta barpo etish yuzasidan tuman hokimligi va tegishli idoralarga bir necha bor murojaat qildik. Nihoyat, joriy yil boshidan ko‘prik qurilishi ishlari boshlanib, aholi va transport vositalari harakatlanishidagi noqulayliklar bartaraf etildi. **Tohir NORQULOV olgan surat.**

“IPAK YO‘LI”

AKSIYADORLIK INNOVATSIYA TIJORAT BANKI

Barchani Qurbon xayiti bayrami

bilan muborakbod etib,

mijozlarimizga qulay bank

xizmatlarini taklif etamiz



“Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki jamoasi ko‘p yillardan buyon viloyatimiz aholisiga malakali innovatsion bank xizmatlari ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, moliya muassasasi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va turlarini ko‘paytirish bilan birga yangi ish o‘rinlari yaratayotgan ishbilarmonlarga moliyaviy ko‘mak berib kelmoqda.

Moliya muassasamiz tomonidan mijozlarga bank xizmatlari ko‘rsatishda bir qator qulayliklar yaratilmoqda. Joriy yildan boshlab “Ipak Yo‘li banki” mobil ilovasini masofadan identifikatsiya qilish yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, bankning mobil ilovasini yuklab olgan mijoz kommunal to‘lovlar, shartnoma to‘lovlarini, budjetga barcha to‘lovlarni (soliq, jarima) to‘lash va shaxsiy hisob-raqam qoldig‘ini tekshirib turish, omonat hisob-raqamlari ochish va ularga pul mablag‘larini joylashtirish, onlayn mikroqarzlarni olish bilan bir qatorda yangi xizmat turlarini doimiy qo‘shib borish imkoniyati yaratilmoqda. Jumladan, “Ipak Yo‘li banki” milliy to‘lov kartalari orasidagi o‘tkazmalar bepul.

Xalqaro Visa kartalar orasida dunyoning barcha davlatlari kartalariga chet el valyutasida o‘tkazmalar amalga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Bankda chiqariladigan istalgan kartaga, masofadan turib Visa, Master card, Uzcard hamda Humo kartalariga mobil ilova orqali buyurtma berish mumkin. Bu kartalarni yetkazib berish bank tomonidan amalga oshiriladi.

“Ipak Yo‘li banki” milliy to‘lov kartalariga o‘zingiz yoqtirgan dizaynda buyurtma bersangiz bo‘ladi. Ushbu bankka tegishli o‘zingizning barcha kartalaringiz parollarini o‘zgartirish, vaqtincha blokka qo‘yish va ochish, amaliyotlar tarixini ko‘rish imkoniyatiga egasiz.

Yana bir yangi qulaylik “Western Union” va “Zolotaya Korona” pul o‘tkazmalari orqali kelgan o‘tkazmalarini qabul qilish va jo‘natish mumkin.

Mablag‘ zarur bo‘lganda 2 daqiqada hamyoningizga kirim qilinadigan onlayn-mikroqarz xizmatidan foydalana olasiz.

Hisob-raqam va xalqaro kartalar qoldig‘i to‘g‘risidagi ma‘lumotnomalarni onlayn buyurtma qilish xizmati o‘rnatilgan.

3D-secure xizmati: internet to‘lovlarini amalga oshirayotganingizda ishlatiladigan qo‘shimcha kod o‘rnatish lozim.

Bundan tashqari, mobil ilovada NFC to‘lov xizmati mavjud bo‘lib, unda telefon orqali kartasiz to‘lovlarni

amalga oshirish mumkin.

Bankomatlar orqali (bank kartasi bo‘lmagan hollarda ham) naqd pul yechib olish imkoniyati yaratilgan. Bunda bankomatdan QR-kod skaner qilib olingan holda kerakli mablag‘ni naqdlashtirish mumkin.

Shuningdek, bosh bankimiz tomonidan o‘tgan yildan boshlab mijozlar xohishiga ko‘ra plastik kartalarga individual dizayn asosida uning surati yoki boshqa surat joylashtirish xizmati yo‘lga qo‘yildi. VISA, Master card, Uzcard, Humo plastik kartochkalari esa bank filialida qisqa vaqtda tayyorlanadi.

Bankimiz tomonidan mijozlarga yanada qulay xizmatlarni taklif etish uchun Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shahrida (20 ta Humo, 15 ta Uzcard) jami 35 ta bankomat o‘rnatilgan. Ushbu bankomatlarning 15 tasi integratsiya qilingan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida Uzcard va Humo kartalariga xizmat ko‘rsatadi. 28 ta avtomatlashgan valyuta ayirboshlash shoxobchasi bankomatlari orqali milliy valyuta – so‘mni AQSH dollariga va AQSH dollarini so‘mga almashtirish mumkin.

Uzcard bankomatlarimiz orqali milliy so‘m kartalarni hamda Humo bankomatlarimiz orqali xalqaro “Ipak Yo‘li banki” kartalarini chet el valyutasida to‘ldirish imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, bankomatlarimizda NFC funksiyasi mavjud. Kartani NFC belgisiga qo‘yib, PIN-kodni kiritib, pullarni yechib olish mumkin. Bu esa kartani bankomatda qolib ketishidan saqlaydi.

Bankimiz tomonidan yana bir qulaylik sifatida bir yilda bank binosi va Samarqand shahridagi “Ipak yo‘li buyum bozori”, “Ehtiyot qismlar bozori”da ADM qurilmasi o‘rnatildi. Bu qurilma yordamida bankka kelmasdan turib kreditlarni so‘ndirish, yuridik va jismoniy shaxslar hisob-raqamlarini to‘ldirish imkoniyati mavjud.

Otabek MELIYEV,

“Ipak Yo‘li” AITbanki Samarqand filiali boshqaruvchisi.

Xizmatlar litsenziyalangan.

QORI NIYOZIY SAFDOSHI

Fidoyi pedagog Rajab Mo‘minovni yod etib

Ochig‘i, men ana shunday ulug‘ insonning jiyani bo‘lganimdan doimo faxrlanib yuraman. Negaki, mulla akam (Rajab Mo‘minovni shunday chaqirardik) biz uchun juda qadri inson edi.

Rajab Mo‘minov garchi 1913-yil 6-iyunda Samarqand tumanidagi Qoziqo‘rg‘on qishlog‘ida tavallud topgan ersa-da, umrinning katta qismini qadimiy shaharning Xon Said Imom mahallasida o‘tkazgan. Aytishlaricha, Mo‘min ota aravakashlik oridan ro‘zg‘or tebratgan, lekin farzandlarining o‘qishi uchun barcha sharoitlarni yaratgan. Shu sababli o‘g‘li Rajabni 14 yoshida bo‘lsa ham maktabga bergan. Iqtidorli bola esa qisqa muddatda fanlarni o‘zlashtirishda ko‘pchilikning nazariga tushgan. 1935-yilda maktab attestatini olgach, SamDU tarix fakulteti talabasi bo‘lgan. Urush davri bo‘lganligi uchun mulla akam shahardagi bir qator maktablarda muallim, bo‘lim mudiri, maktab direktori bo‘lib ishlagan. Muhimi, uzoq yillar davomida ta‘lim-tarbiyada o‘zining maktabini yaratgan olgan.

Mohir pedagog o‘quvchilar, shogirdlari bilan juda yaqin muloqotda bo‘lgan, ularni fikrlashga, ko‘proq kitob o‘qishga jalb etgan, obida va muzeylarga erinmasdan o‘zi boshlab borgan. Shuning barobarida muallim nafaqat o‘ziga, balki hamkasblariga ham juda talabchan bo‘lgan. Shu sababli bo‘lsa kerak, Rajab akaning tarbiyaviy suhbatlarini hali-hamon davralarda hurmat bilan eslashadi. Bu kishining shogirdlari bilim-dagina emas, xalqqa xizmat qilish, ezgu fazilatlarni namoyish etishda ham jamiyatda peshqadam bo‘lgan. Xususan, Samarqand jamoatchiligiga yaxshi tanish bo‘lgan Qut-fiddin Shukurov, Rabbimqul Istamqulov, Nasriddin G‘iyosov, Nasim Karimov, Anzirat Rajabovalarning farzandlari ularning otalari Rajab muallim haqida katta faxr bilan gapirganlarini eslashadi.

- Rajab aka bilan 22-maktabda birga ishladik, - deydi



shu maktabning sobiq o‘quv bo‘limi mudiri Nasim Rubinovich Mosheyev. - U kishidan juda ko‘p narsa o‘rganganman. Ayniqsa, muallim bizga doimo o‘quvchi oldida madaniyatli va subutli bo‘lishimizni talab qilardi. Katta davralarda ham ortiqcha gapirmasdi, “O‘qituvchining vazifasi dars jarayonida bolalarga izoh berishdir”, derdi.

Bir voqea esimdan chiqmaydi. Onam (Oloah rahmat qilsin!) “Bolam, mulla akang kechqurun uyga kelsin, dengdilar. Markazdan mehmon bor ekan, xazmatda bo‘lasan”, deb tayinladilar. Borsam, Rajab akaning Xon Said Imom mahallasidagi uyida mehmonlar o‘tirishgan ekan. Tashqarida xizmatga shay bo‘lib turdim. Mehmonlardan biri qo‘l yuvish uchun hovliga chiqdi. Men qo‘limni ko‘ksimga qo‘yib, “assalomualaykum” deb, darhol o‘ftobda qo‘liga suv quyib, sochiqni uzatdim.

- Vaalaykum assalom. Eslila ekanam.

- Rahmat, mulla aka, - dedim hayajon bosib.

- O‘qiyapsanmi?

- Ha, tarix fakultetida o‘qiyapman.

- Juda zo‘r bo‘pti-da, tariximizni yaxshi bilishimiz kerak, tariximiz bilan g‘ururlanishimiz kerak.

Keyinchalik bilsam, u kishi afsonaviy inson, olim, akademik Toshmuhammad Qori Niyoziy ekanlar. Demoqchi-manki, Rajab Mo‘minov zamonasining yetuk ziyolilaridan edilar. U kishining xonadonida tanikli olimlar ishtirokida mashvaratlar bo‘lgan. Mulla

akam to‘rt-besh yil tuman xalq maorifi bo‘limi mudiri bo‘lib ham ishlaganlar.

- Men Rajab aka bilan besh yil bosh hisobchi bo‘lib ishladim, - deydi Nadejda Andreyeva. - Bu davr ichida u kishining biror kishiga yomon gapirganini, ovozini balandlatganini ko‘rmadim. Bundan tashqari, Rajab aka yosh mutaxassislariga juda mehribon edilar.

Bir men emas, mulla akamning o‘g‘li Alisher ham otasi ishlagan Xaymar va Motrid qishloqlariga borganida odamlar padari buzrukvori haqida iliq gaplarni aytganlarini faxrlanib so‘zlaydi.

Rajab Mo‘minov 1975-yilda nafaqaga chiqdi, besh yil o‘tgach, vafot etdi. Lekin o‘zidan juda katta insoniylik maktabini qoldirdi. Xalq ta‘limining yetakchi vakillaridan biri sifatida shakllandi. Umr yo‘ldoshi Umaro yangamiz bilan qirq yil mehr-muhabbat bilan yashab, to‘rt nafar o‘g‘il, uch nafar qizni zamonamizga munosib qilib kamolga yetkazdilar. Darvoqe, farzandlari yordamida yangamiz Haj safariga ham borib keldi.

Agar hayot bo‘lganlarida Rajab muallim 110 yoshga to‘lardi. Ammo u kishi bugun farzandlari, shogirdlari timsolida yonimizda yashayapti. Salohiyatli maktabining dovruq‘ida ko‘plab shogirdlari bugun ham Vatanga o‘z ustozlaridek xizmat qilmoqdalar. Menimcha, boqiylikning bori ham shu bo‘lsa kerak.

Naim MO‘MINOV,
tarix fanlari nomzodi,
dotsent.

REKLAMA, E‘LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

CHORVACHILIK FERMASI SOTILADI!

“O‘zsanoatqurilishbank” aksiyadorlik tijorat banki Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi balansidagi Kattaqo‘rg‘on tumani “Yangi hayot” MFY, Boynazar qishlog‘i, 81-uy manzilida joylashgan qiymati 2 350 000 000 so‘m, umumiy maydoni 3476,14 metr kvadrat bo‘lgan chorvachilik fermasi sotiladi.

Chorvachilik fermasi quyidagi mulklardan iborat: Ma‘muriy bino (umumiy maydoni 53,40 m.kv.), ofis (foydali maydoni 24,03 m.kv.), omborxona (umumiy maydoni 38,22 m.kv.), molxona (umumiy maydoni 1130,08 m.kv.), sog‘in sigir va buzoqlar binosi (umumiy maydoni 764,64 m.kv.), ayvon (umumiy maydoni 79,66 m.kv.), omborxona (umumiy maydoni 250,09 m.kv.), ayvon (umumiy maydoni 295,47 m.kv.), omborxona (umumiy maydoni 141,24 m.kv.), ayvon (umumiy maydoni 100,43 m.kv.), ayvon (umumiy



maydoni 86,21 m.kv.), ayvon (umumiy maydoni 126 m.kv.), ayvon (umumiy maydoni 385,90 m.kv.), ishchilar binosi (umumiy maydoni 20,88 m.kv.), hojatxona (umumiy maydoni 3,92 m.kv.).

Qo‘shimcha ma‘lumotlar uchun quyidagi manzilga murojaat etishingiz mumkin: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 13-uy. Telefonlar: +99897-907-55-05, +99893-347-28-06, +99894-711-13-15, +99899-032-00-72.

DA‘VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Ishpulatova Maxsuda (2010-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne‘matilloevich notarial idorasida marhum Abdullayev Kobilga (2018-yil 23-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahmonov Sarvar Ne‘matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 60-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Melikulov Jurakul Danayevichga (2022-yil 15-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun

meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshmurov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko‘chasi, 35-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Salaxutdinova Xusniyaga (2020-yil 18-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 18-uy, 51-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Mansurova Muhabatga (2022-yil 22-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Sharipova Risolatga (2009-yil 3-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko‘chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne‘matilloevich notarial idorasida marhum Safarov Daler Nurilloevichga (2021-yil 22-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahmonov Sarvar Ne‘matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 60-uy.

BEKOR QILINADI
Samarqand shahridagi “PERFECT GUM SAVDO” mas‘uliyati cheklan-gan jamiyatining (STIR: 306214360) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

“SAMARQANDDA QOVUN TAROVATI”DAN BAHRA OLDIK

O‘zbek san’atida kino alohida o‘ringa ega. Xalqimizning boy madaniyati, ma’naviyati, ijtimoiy holati aks ettirilgan lavhalar aynan kinoda gavdalanadi. “Yor-yor”, “Mahallada duv-duv gap”, “Suyunchi”, “Vodillik kelin” kabi filmlar sodda va tan-ti xalqimizning kundalik hayoti, turmush tarzi, madaniyati va san’atini o‘zida aks ettirgan mashhur asarlardir. Mazkur filmlar davrlar osha xalqimizning milliy merosiga aylanib bormoqda. Ulardagi har bir qahramon, har bir lavha barchamiz uchun qadrlı bo‘lishi bilan birga, yoqimli xotiralarni ham yodga soladi. Bu filmlar xalqimiz qalbidan joy olgan bo‘lib, uning suyuqli va betakror filmlari qatorida qayta va qayta tomosha qilinadi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, “Felix” xalqaro mukofoti sohibi, taniqli o‘zbek rejissyori Ali Hamroyev tomonidan suratga olingan “Samarqandda qovun tarovati” filmi ham shunday filmlar sirasiga kiritish mumkin. Filmdagi barcha voqealar Samarqand shahridagi ko‘hna mahallalardan birida suratga olingan. Qadim va hamisha navqiron Samarqandning yuragi, Registon maydoni joylashgan hududda bir mahalla ahlining kundalik turmush tarzi mazkur filmning bosh g‘oyasi sifatida tanlangan. Filmdagi asosiy qahramon hayotining past-balandi, achchiq-chuchugini tatigan, elning hurmat-ehтиromiga sazovor, xalqqa ilm ziyosini taratib turgan muallim, nuroniy Asqar otadir. Film aynan Asqar otaning velosipedda qadimiy shahardagi bozordan qovun sotib olib kelayotgani bilan bog‘liq lavhadan boshlanadi. Asqar ota velosipedda harakatlanib kelar ekan, Samarqand qovuni tarovati chor atrofidagi sayyohlarni maftun etadi.

Asqar ota yoshi ulug‘ bo‘lishiga qaramay, mahalla ahliga imkon qadar ko‘maklashadi. Shuningdek, mahalladagi Ma‘muraning qizini aldab, begona yurtlarga olib ketib, sotib yuborganlarning changalidan qutulishiga o‘zining qimmatli maslahatlarini beradi. Natijada qiz sog‘-salomat oilasi bag‘riga qaytadi.

Filmda mahalla milliy qadriyat sifatida gavdalanitirilgan bo‘lib, mahalla raisining har bir masalada xalq bilan bamaslahat faoliyat olib borishi, yoshi ulug‘larning maslahat va nasihatlariga amal qilishi namoyish etiladi. Darhaqiqat, xalqimizda “Maslahatli to‘y tarqamas”, degan naql bor. Mahalla esa aholining barcha qatamlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan mahallada kechayotgan har bir o‘zgarishga, yangilanishga befarq bo‘lmaslik xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, desak yangilishmagan bo‘lamiz. Shuningdek, filmda mahalladagi chinorlarning kesilib, uning yeri tadbirkorga sotilib, kesilgan chinorlar o‘rnida to‘yxona qurilishi rejasi haqidagi



lavhalar kishini o‘yga toldiradi. Shunda fuqarolarning bunga salbiy munosabati va tadbirkorni to‘xtatishga harakat qilishi va bu masala ham hukumat vakilining xalq dardiga quloq tutishi bilan ijobiy hal qilingani xalqning erkinligi, fuqarolar huquqlarining davlat tomonidan kafolatlangani va ta‘minlanayotganidan darak beradi.

Asqar ota mahalla bolalariga ta‘lim berish bilan ham shug‘ullanadi. Kimgadir rus tili, kimgadir tarix va yana kimgadir boshqa ilmlarni o‘rgatadi. Ammo e‘tiborli jihati shundaki, u odam ajratmaydi, hammaga teng va barobar munosabatda bo‘ladi. Uning daun sindromiga chalingan bolakayga sabr-bar-dosh va go‘zal muomala bilan saboq berishi fikrimizning yorqin dalilidir. Bola o‘z bobosi bilan shubhatlashgandek, uning mehri va samimiyligini his qiladi.

Filmda go‘zal bir tugun bor. Asqar ota Rossiyaga pul yuborib turadi. Uning bu odatini mahalla ahli qahramonimizning Rossiyada oilasi va farzandlari borligi haqidagi gumonlar bilan asoslashga harakat qiladilar. Ammo aslida unday emas. Kinoda Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lganlarning xotirasi hamda ularning xizmatlari haqida alohida lavhalar mavjud. Asqar ota ham Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Vatan tinchligi yo‘lida jonini fido qilgan otasining qabrini tiklashga harakat qiladi va

film so‘ngida buning uddasidan chiqadi. Rossiyaga yuborilgan pullar aynan otasining qabrini tiklashga qaratilgan sarf-xarajatlarni qoplash uchun yo‘nalitirilganidan esa aholi bexabar edi.

Umuman olganda, tomoshabin filmni o‘zgacha zavq, hayajon va qiziqish bilan tomosha qiladi. Undagi har bir sujet kishini tafakkurga chorlaydi va o‘z navbatida xalqimizning boy madaniyati, o‘tmishi bilan haqli ravishda faxrlanishga, kelajak avlodga uni o‘z holicha saqlab yetkazishga undaydi.

Samarqand xalqaro texnologiya universitetida mazkur filmning premerasi bo‘lib o‘tdi. Film rejissyori va yig‘ilganlar o‘rtasidagi jonli muloqot odatdagi filmlar namoyishidan tubdan farq qildi.

- Men mazkur filmni tomosha qilar ekanman, o‘zimni o‘z uyimdagidek his qildim, - deydi Samarqand xalqaro texnologiya universiteti huzuridagi Koreya texnologiyasi va madaniyati kolleji rahbari, professor Hvang Sungdon. - Sababi, Janubiy Koreyada ham xuddi o‘zbek xalqi singari oila muqaddas qadriyat. Insonning tug‘ilishidan tortib, kamolotga yetguncha bo‘lgan davri aynan oila bilan chambarchas bog‘liq. Janubiy Koreyada ham oila instituti jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, uning ajralmas qismidir. Ta‘lim-tarbiya, madaniyat, urf-odatlarining barchasi

oiladan boshlab o‘rgatiladi. Shu nuqtai nazardan olganda, men o‘zbek va koreys xalqlarining yana bir mushtarak tomonlarini kashf etdim. Bundan tashqari, men shu paytgacha Samarqandga sakkiz marotaba kelganman. Ammo filmni ko‘rib, men hali Samarqandning ko‘rmagan manzillari ko‘p ekanligini anglab yetdim.

Film ko‘plab hikoyalardan iborat jumboq bo‘lib, unda ranglar, tovushlar, qahramonlar bilan uyg‘unlashib ketgandek tasavvur uyg‘otadi. Shahardagi ba‘zi o‘zgarishlar orasida qahramonlar Registonning ajdodlari tomonidan barpo etilgan haqiqiy siymosini saqlab qolishni muqaddas burch va hayotlarining mazmuni sifatida biladilar. Shu ma‘noda ular ajdodlardan qolgan merosni himoya qilishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida har qaysi xorijlikning o‘zbek xalqiga bo‘lgan hurmati va mehrining yanada oshishiga sabab bo‘ladi. Hozirgi kunda har qaysi millatning o‘zligini saqlash, an‘ana va milliy qadriyatlarini muhofaza qilishi dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek xalqining bu boradagi qahramonligi tahsinga sazovor.

Umedullo MAHMUDOV, Samarqand xalqaro texnologiya universiteti huzuridagi O‘zbek tili va madaniyati markazi rahbari, filologiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD).



Siz ko‘rib turgan ushbu surat olinganiga salkam 40 yil bo‘ldi. Aniqrug‘i, surat 1985-yil 1-dekabr kuni tushurilgan. Unda taniqli publitsist Ahmadjon Muxtorov muharrirligidagi “Lenin yo‘li” (hozirgi “Zarafshon”) gazetasining zabardast jurnalistlari, ijodkorlar, musahhih va texnik xodimlar aks ettirilgan.

Xalqaro yoga kuni nishonlandi



Shu munosabat bilan Samarqanddagi “Boqiy shahar” majmuasida to‘qqizinci xalqaro yoga festivali o‘tkazildi.

Toshkent va Samarqand o‘rtasida videomuloqot tarzda o‘tkazilgan ommaviy sport bayramida Yoshlar siyosati va sport vaziri Adham Ikromov, Hindistonning O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Manish Prabxat yoga mashqlarining mazmun-mohiyati va inson salomatligi uchun foydali jihatlariga to‘xtalib o‘tdi.

- Yoga xalqlarning global tinchligi, taraqqiyoti va farovonligi uchun yo‘l ochadi, - deydi Hindistonning O‘zbekistondagi elchixonasi birinchi kotibi Rajeyev Gosvami. - Har bir inson ruhiy xotirjam, doimo sog‘lom bo‘lishni istaydi, yoga mashg‘ulotlari tanani jismoniy, ma‘naviy, aqliy, ruhiy jihatdan chiniqtirish, har xil dardlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ohista bajarilgan harakatlar qon aylanishi, nafas olish, harakat tayanch a‘zolari benuqson bo‘lishi ta‘minlaydi.

Festival davomida ishtirokchilar hindistonlik murabbiy bilan birgalikda yoganing tana va ruhiyatga foydali jihatlarini o‘zida mujassam etgan turli mashqlarni bajardilar.

SENSIZ

Yillar shiddat ila qoqar
qanotin,
Yashayapman netong,
sensiz ko‘nikib.
Sen bugun qalbimda
xayoldan haykal,
Kitobim qatida sarg‘aygan
maktab.

Unut bo‘ldi sen-la o‘tgan
lahzalar,
Keksayib bormoqda
sog‘inchu alam.
Qara, bizlar ekkkan chinor
kesildi,
Quridi umridan uzun
orzu ham.

Neiloj, kechirdim
xiyoningni,
Barini unutdim -
ulg‘aydimmi yo.
Sensizlik men bilan
yashaydi hali,
Sen mensiz baxtiyor
bo‘larding go‘yo.

Mayli, kechirmagil g‘o‘r
yoshligimni,
O‘zim jazoladim -
pushmonlar yedim.
Armon qolmasin deb
vido xatimni
So‘ngi bor senga yozdim
- men sen edim.
Shahlo QO‘ZIYEVA.

Xanda

Bezori folbinning iyagiga mushtini tirab, “O‘rtog‘im qamalanganiga bir yildan oshdi. Qachon chiqishini aytmasang...”, deb o‘dag‘ayladi. Folbin: — Bolam, sen juda omadli ekansan-ku! Maqsadingga yetadiganga o‘xshaysan. Folbindan bunday gapni kutmagan bezori sevinib ketdi: — Nima? O‘rtog‘imni qo‘yib yuborishadimi? Folbin: — Yo‘q, uni qo‘yib yuborishmaydi. Lekin o‘zing yaqin o‘rtada uning yoniga borasan. * * *

O‘qituvchi talabadan so‘radi: — Xo‘sh, Muqimiyning murabballari haqida nima bilasiz? Talaba: — Domlajon, men Muqimiyning she‘r yozishini bilardim. Ammo murabbo tayyorlovchi qandolatchi bo‘lganini birinchi marta eshitib turibman...

J.MAJIDOV, Oqdaryo tumani.

SHAMOL QUTURGAN OQSHOM

↓ Turmush chorrahalarida

- Hormang, hormang, assalomu alaykum! - Hamid pismiq peshonasini oq ro‘molcha bilan tang‘ib yer chopayotgan Alimqulga qo‘l uzatdi. - Bor bo‘ling, umringizga baraka! - Alimqul ketmonni qo‘yib, ko‘rishdi. - Bu taqir yerlardan biror naf chiqarmikan? - o‘smoqqchiladi Hamid pismiq. - Noumid shayton, ha endi, harakatda barakat-da, - dedi Alimqul.

Bu yerlar, xudo biladi, qachonlardan beri qaqrab yotgan? Taqdir shu ekan, deb umri qo‘y orqasidan tayoq sudrab o‘tayotgan Hamid pismiqning vaqti kelib, shundoqqina eshigi tagidagi yerga Alimqul ega chiqadi, deb yetti uxlab tushiga ham kirmagan edi. Auksionda sotib olganmish. Oqsoqol qishloq atrofidagi yerlar kimoshdi savdosiga qo‘yilayotganini aytib, Hamid pismiqqa ham qatnashishni maslahat bergani-da bormagan edi. Bunday bo‘lishini kim bilibdi, deysiz? Endi qo‘ylarini qayerda boqadi? Alamdan ichi kuydi. Yo‘q, bunga yo‘l qo‘ymaydi. Alimqul chuchvarani xom sanabdi. Ammo ko‘nglidan o‘tganini sirtinga chiqarmadi.

- Mayli, oshna, omdangizni bersin! - u tayog‘ini sudrab, suruvi orqasidan ketdi.

Alimqul degani chayir chiqib qoldi. O‘ziga tegishli yer atrofini g‘ov bilan o‘rab, maydonni tekislab, chuqur hay-

dattirdi, artezian quduq qazdirib, suv chiqardi. Vagon-uy o‘rnatib, ko‘chib keldi. Ekinni sog‘ingan qaqroq yer dehqon mehnati, mehridan yashnadi. Ekilgan qovun-tarvuz va boshqa poliz ekinlari palak yozdi. Buni ko‘rgan Hamid pismiqning hasaddan ichi o‘t bo‘lib yondi. Nima qilsa, bu kelgindidan qutular ekan-a? U butunlay halovatini yo‘qotdi.

- Ha, Hamidvoy, to‘rvasini yo‘qotgan gadodayday shumshayib turibsan? - qo‘shnisi Samat traktorchi uning ko‘nglidan kechayotganlardan bexabar hazillashdi. - Burnimiz tagida shunday imkoniyat bor ekan, bilmabmiz. Suruv-suruv qo‘yimiz bor, deb gerdayib yurgan ekanmiz. Qara, uddaburon yigit ekan, yuz million daromad olar-ov...

Samat traktorchinging gapi Hamid pismiqning yarasiga battar tuz sepdı. - Buni hali ko‘ramiz!

Alimqulning polizida ko‘zni quvontirib, ilk nishona handalak pishdi. Hademay, qovun-tarvuz yetiladi. Ularga ko‘zi tushar ekan, Hamid pismiqning ko‘nglida hasad olovi battar avj oldi. Yakshanba kuni edi. Alimqul ko‘rinmadi. Qorovul Suyarning aytishicha, bank bilan hisob-kitoblari bor ekan, tuman markaziga ketibdi. Yarim tunda kuchli shamol qo‘zg‘aldi. Uyqusi uchgan Hamid pismiq tashqariga chiqdi. Osmonni chang-to‘zon qoplagan, shamol odamni uchirguday quturardi. Hamid pismiq poliz tomon yurdi, telbalardek shox-shabba g‘ovlarni buzib,

atrofga uloqtirdi. Uning ishini osonlashtirmoqchi bo‘lgan-day shamol battar o‘kirardi. U g‘ovni buzgach, avval qo‘radagi qo‘ylarni, so‘ngra qo‘shnisining poda mollarini polizga qo‘yib yubordi...

Ertasi kuni qaytgan Alimqul manzarani ko‘rib, esi og‘ib qolay dedi. Poliz ekinlari mollar tuyog‘i ostida payhon bo‘lgandi. Qishloq ahlining aytishicha, bunday tabiiy ofat anchadan bo‘yon bo‘lmagan ekan. Nafaqat Alimqulning polizi, balki odamlarning molxona, qo‘ralarining tomlarini shamol uchirib ketgan, hamma dashtga tarqab ketgan molları, qo‘ylarini qidirish bilan ovora edi.

Alimqul ancha vaqt mehnatiga, polizga achinib, qarab turdi. Yaxshiyam vaqtida sug‘urta qildirib qo‘ygan ekan. Manzara tabiiy ofatning ishiga o‘xshamasdi. O‘zi yo‘qning ko‘zi yo‘q, deganday qorovul ham polizni tashlab, uyiga ketgan ekan. Alimqul kimdan gumon qilishni bilmasdi. Gumon imondan ayiradi. Ko‘rmaganingdan keyin qiyin-da!

Ammo Alimqulning ruhi tushmadi. Niyati yanada qatylashdi, payhon bo‘lgan polizni tekislab, qaytadan urug‘ ekdi, buzilgan g‘ovlarni olib tashlab, maydon atrofini mustahkam sim to‘r bilan o‘radi. Hamid pismiq buni ko‘rib, hasaddan dod, deb yuborayozdi: “Qanaqa odam bu o‘zi? Shuncha mehnat, xarajatga kuysa ham tashlab ketishni xayoliga keltirmaydi-ya!”

Tog‘aymurod SHOMURODOV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 601 nusxada chop etildi. Buyurtma 347. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G‘.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO‘XTAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda